

ТАБИЙ RESURSLAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi Eshmurodova
Gulsanam

Ilmiy rahbar: **Alimardonova Mo'tabar**

Annotatsiya: Tabiiy resurslar tabiatda mavjud bo'lgan va inson tomonidan yaratilmaydigan insonning hayoti uchun zarur bo'lgan barcha tabiiy jismlar hisoblanadi. Muallif tomonidan ushbu maqolada tabiiy resurslar bo'yicha fikr mulohaza yuritilgan. Shuningdek tabiiy resurslar mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: tabiiy resurslar, muhofaza qilinadigan hududlar, suv resurslari, yer osti va yer usti suvlari.

Abstract: Natural resources are all natural objects that exist in nature and are not created by humans, necessary for human life and economic activity. In this article, the author reflects on natural resources. Also, natural resources play an important role in the development of the country's economy.

Keywords: natural resources, protected areas, water resources, underground and surface water.

Tabiat resurslari, tabiiy boyliklar — jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari. Tabiat resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kiradi. Tabiat resurslari tugaydigan (ko'pgina foydali qazilmalar), tugamaydigan (suv, havo, Quyosh nuri, Yerning ichki energiyasi) va tiklanadigan (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) boyliklarga bo'linadi. Tabiiy xom ashyolarni ko'p darajada

iste'mol qiluvchi kuchlarning jadal rivojlanishiga bog'liq ravishda tabiat resurslari bilan ta'minlash muammolari yanada dolzarblashib bormoqda. Tuproq, atmosfera va gidrosferaning ifloslanishiga qarshi kurashishda jahonning barcha mamlakatlari kelishib faoliyat yuritishlari zarur bo'lib, tabiat resurslari muhofazasi global xarakterga ega bo'lmoqda. Tabiat resurslarini o'zlashtirishning muhim bosqichlari — ularni aniqlash (razvedka qilish), o'rganish, alohida turlari bo'yicha kadastrlar (masalan, yer kadastr, suv kadastr) tuzishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida tabiat resurslari kadastrlarini tuzish va yuritish O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida" qonuni (2000-yil, 15 dekabr)ga muvofiq olib boriladi.

Tabiat resurslarini baholashning ilmiy asoslangan 3 tipi mavjud: texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy. Tabiat resurslarini to'g'ri baholash ulardan foydalanishda eng yuqori samaralarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Inson tafakkuri o'sishi bilan bog'liq holda tabiat resurslari turlari ham kengayib bormoqda, bunda eng zamonaviy texnik vositalardan foydalaniladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlanib borishi bilan tugaydigan tabiat resurslari o'rnini bosuvchi yangi sun'iy materiallar ishlab chiqarilmoqda, Dunyo okeani boyliklari o'zlashtirilmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishi yo'lida tabiat resurslaridan samarali foydalanish va tabiatda ekologik muvozanatni ta'minlab turuvchi yangi sifatli texnologiyalarni yaratish talab etilmoqda. Xomashyo va energiya manbalaridan rejali tarzda foydalanish uni uzoq muddatga yetishini ta'minlaydi.

Jamiyat hayotini yashash vositasi bo'lgan turli tabiiy resurslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. «Resurs» so'zi - fransuz tilidan olingan bo'lib, «yashash vositasi» degan ma'noni bildiradi. Tabiiy resurs deb - tabiatda mavjud bo'lgan, insonlar tomonidan yaratilmaydigan, insonning hayoti, xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha tabiiy jismlar, sharoitlar va jarayonlarga aytiladi. Mamlakatning tabiiy resurslarga boyligi uning iqtisodini rivojlantirishning muhim sharoitlaridan biridir, aksincha zahiralarning kamligi yoki umuman yo'qligi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Lekin bu qonuniyatni har doim ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Dunyoda

shunday mamlakatlar borki, ular joylashgan hududda mineral resurslar umuman yo‘q yoki bo‘lsa ham juda oz miqdorda, shunga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar. Bu mamlakatlarda ishchilar, muhandislar va texnik xodimlarning yuqori malakaga egaligi, fan-texnika taraqqiyoti uchun yaratilgan sharoitlar sanoatni rivojlantirishda eng muhim omillardan biri deb hisoblanadi. Tabiiy resurslar tasnifi uchta belgi asosida qabul qilingan: paydo bo‘lish manbasi asosida, ishlab chiqarish bo‘yicha va qayta tiklanish darajasi bo‘yicha. Paydo bo‘lish bo‘yicha tabiiy resurslar biologik, mineral va enegretik resurslarga bo‘linadi. Biologik resurslar - biosferaning muhitini tashkil qiluvchi hamma jonvor komponentlari: produtsentlar, konsumentlar va redutsentlardir. Ular inson tomonidan moddiy va ma`naviy qulayliklarni olish manbasidir.

Mineral xom ashyo rudali (undan metallar ajratib olinadi) va rudamasli (metalmas komponentlar ajratib olinsa yoki qurilish material shaklida ishlatilsa) bo‘lishi mumkin. Agarda mineral resurslar yoqilg‘i shaklida ishlatilsa (ko‘mir, neft gaz, torf, yog‘och, atom energiyasi) ular yoqilg‘i-energetik resurslari turiga kiradilar. Energetik resurslar - quyosh, koinot, atom-energetik, termo va boshqa energiya manbalarini majmuasidir. Ishlab chiqarishda ishlatilishi bo‘yicha tabiiy resurslar quyidagilarga bo‘linadi: - yer fondi - dunyo va mamlakat miqyosidagi hamma yerlar, vazifalari bo‘yicha quyidagi toifalarga bo‘linadi: qishloq xo‘jaligidagi yerlar, yashash punktlari, noqishloq xo‘jaligi yerlari (sanoat, transport, qazib olish sanoatida va h.k). Dunyo yer fondi 13,4 mlrd.gani tashkil kiladi;

- o‘rmon fondi - alohida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil qilish uchun o‘rmonlar o‘sadigan yoki o‘sishi mumkin bo‘lgan sayyoramizning yer fondining bir qismi;
- suv resurslari - xo‘jalikda xilma xil maqsadlarda ishlatiladigan yer osti va yer usti suvlari (alohida o‘rinni chuchuk suv zahiralari egallaydi);
- gidroenergetik resurslar - daryo, dengizning pasayish-ko‘tarilish faoliyati natijasida hosil bolgan resurslar;

- fauna resurslari - inson ekologik muvozanatni buzmagani holda suv, o'rmon, cho'llardagi tirik mavjudotlarni ishlatishi mumkin bo'lgan resurslar;

- qazilma boyliklar (rudali va rudamasli, yoqilgi-energetik resurslari)- xo'jalikda ishlatilishi mumkin bo'lgan yer qobig'idagi minerallarning tabiiy yig'indisi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiatni muhofaza qilish tabiiy resurslardan foydalanish va qayta tiklash sohasida davlat nazorati va tarmoqlararo boshqaruvini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli, idoraviy va muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanib, uning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklash sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlash;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, korxonalar muassasalar va tashkilotlar, shuningdek alohida shaxslar tomonidan yerlar, qazilma boyliklar, suv, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik olami, atmosfera havosidan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatining tarmoqlararo kompleks boshqaruvini amalga oshirish;

Atrof-muhitni qulay holatini ta'minlash va ekologik holatni sog'lomlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish.

Mustaqillik yillarida respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini boshqarib turadigan qariyb 30 ta qonun va 350 dan ortiq me'yoriy huquqiy hujjat qabul qilindi.

O'zbekistonda amal qilinayotgan tabiatni muhofaza qilish qonunlari butun mamlakat hududida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni asrash, oqilona foydalanish va qayta tiklash kabi tadbirlarning to'liq hajmda bajarilishini ta'minlaydi.

1. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti va uni tashkil qilish bo'limi;
2. Atmosfera havosini nazorat va muhofaza qilish inspeksiyasi;
3. Yer, tuproq hamda chiqindilarni boshqarishni nazorat va muhofaza qilish inspeksiyasi;
4. Suv ob'ektlarini nazorat va muhofaza qilish inspeksiyasi;
5. O'simlik hamda hayvonot dunyosini nazorat va muhofaza qilish inspeksiyasi;
6. Mahalliy jamg'arma bo'limi;
7. Analitik nazoratga ixtisoslashgan inspeksiyasi;
8. Ekologik ekspertiza bo'limi;
9. Ekologik sertifikat bo'limi;
10. Fan-texnika taraqqiyoti va targ'ibot-tashviqot bo'limi;
11. Ekologiya huquq bo'limi, xodimlar bilan ishlash va buxgalteriya hisobini yuritish.

Tabiatni muhofaza qilish - tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi.

Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5–4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti

ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalari, masalan, ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplamining tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, raqib turlar sonining ko'payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Yerdan odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Inson tabiatga mehnat qurollari vositasida yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida ta'sir ko'rsatadi. U o'zining tabiat bilan bo'lgan o'zaro ta'siri usullarini takomillashtirib boradi. Natijada inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko'lam jihatidan ham ko'payadi. Inson o'zi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sun'iy muhitni ham bunyod etadi. Masalan, shaharlar, turar joy binolari, bog'lar, suv omborlari, yo'llar va boshqa ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan,

tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o'zgarib boradi. Qadimda bir necha xil kimyoviy elementlardan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda mavjud barcha elementlardan foydalaniladi. Shu bilan birga ko'pchilik foydali qazilmalar tobora ko'proq qazib chiqarilmoqda. Insonning tabiatga ta'siri kuchayishidan, antropogen landshaftlar ko'paymoqda. Hayvonot va o'simlik olamidani rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog'liq boshqa sabablar tufayli 16-asrning oxirlaridan 20-asrning 70yillarigacha umurtqali hayvonlarning 250 turi va kichik turlari butkul yo'qolib ketdi. 80-yillardan boshlab xar yili o'rtacha 1 ta hayvon turi va 50 ga yaqin o'simlik turi yo'qolib bormoqda. Qush va sut emizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Yil davomida 1 milliard tonna yoqilg'i yoqiladi, atmosferaga yuzlab million tonna azot oksidi, oltingugurt, uglerod, qurum, chang va boshqalar chiqariladi. Tuproq va suvlar sanoat va maishiy chiqindilar (bir necha milliard tonna), neft mahsulotlari (bir necha million tonna), mineral o'g'itlar (yuz million tonnaga yaqin), og'ir metallar, radiaktiv chiqindilar bilan ifloslanadi.

Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish texnikasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o'zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba'zan chuqur o'rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta'sir ko'rsatish tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Pekin 19-asrgacha insonning tabiatdan foydalanish ko'lami uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta'siri ham kamroq bo'lgan.

O'zbekistonda 10 dan ortiq o'rmon xo'jaligi, 9 ta qo'riqxonasi, 2 milliy bog', bir qancha buyurtma qo'riqxonasi mavjud. Ularda tabiat yodgorliklari, kamayib ketgan o'simlik va hayvonlar qo'riqlanadi, o'rganiladi va ko'paytiriladi. O'zbekistonda

tabiatni muhofaza qilish respublika jamiyati, 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston jamiyati, O‘zbekiston geografiya jamiyati, EKOSAN, bir qancha ilmiyomabop va ilmiy jurnallar, radio va televideniye vaqtli matbuot Tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilmoqda. Aholi o‘rtasida tabiat, undan oqilona foydalanish va muhofaza qilish haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish, aholining geografik, ekologik madaniyatini ko‘tarish Tabiatni muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Tabiatni, uning boyliklarini muhofaza qilish, geografik ekologiya o‘quv kurslari o‘rta maxsus va oliy yurtlarining tabiatshunoslik mutaxassisliklari talabalariga maxsus kurslar sifatida o‘qitilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова, К.К Кобилжонов. Высокая духовность основа экологической культуры. Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации, 5-8.
2. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. Физическая культура и спорт-эффективное средство предотвращения вредных привычек у подростков. Человек и природа, 195-198.
3. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. К проблеме взаимодействия общества и природы. Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века, 255-256.
4. Н.Ж Бобомуродова Экологическая культура как общечеловеческая ценность ББК 74, 188.
5. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. ВЗГЛЯДЫ НА АСТРОЛОГИЮ ВЕЛИКОГО МЫСЛИТЕЛЯ АБУ РАЙХОН БЕРУНИ. Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные.
6. Б.Н Жураевна. ЗАДАЧИ ШКОЛЫ ПО ОХРАНЕ ПРИРОДЫ ШКОЛЬНИКОВ Вопросы науки и образования 138 (№ 13), 18.
7. Б.Н.Ж., Холов Ё.Д., Файзиева Ф.А. Соя ўсимлигининг географик тарқалиши ва экологик хусусиятлари. Биология ва тиббиёт муаммолари, 288-291

8. Б.Н Жураевна. Экологическая культура как общечеловеческая ценность
Международная научно-практическая конференция профессорско.
9. Н.Ж Бобомуродова. Оптимальный режим питания-важный фактор
правильного физического развития детей. Вестник науки и образования, 61-63.
10. Н.Ж Бобомуродова, АБДУЛЛАЕВ КОБИЛЖОН ФАЙЗУЛЛАЕВИЧ. ВКЛАД
ВЕЛИКОГО МЫСЛИТЕЛЯ А.Р. БЕРУНИ В ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ.
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
"АНТРОПОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАНИЕ.
11. Н.Ж Бобомуродова. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ ЗАДАЧИ ШКОЛЫ ПО
ОХРАНЕ ПРИРОДЫ. Вопросы науки и образования, 18.
12. Asadullayev A.N. The role of physical education and sports professionals in the
organization of a healthy lifestyle in society. Journal of Innovations in Pedagogy and
Psychology, 3rd special issue. Tashkent-2020. 31-36.
13. Asadullayev A.N., Ochilova N.R., Jabborova O.G. Healthy lifestyle (Healthy
lifestyle) *Academicia* an international multidisciplinary research journal (ISSN:2249-
7137, январь 2021, 1835-1841).